

DAVLAT XARIDLARINI NAZORAT QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA MASALALARI

Monitoring o'tkaziladigan tashkilotning nomi _____

Monitoringni o'tkazish muddatlari: " ____ " _____ 202__ dan " ____ " _____ 202__ yilgacha

№ p/p	Tadbirlar (taomillar) ro'yxati	Ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalar	Izohlar
	Lot raqami va xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomi		
	Xarid qilish xarajatlarining maqsadga muvofiqligi va asoslilikini tekshirish, tahlil qilish va baholash	1. Xarid obektining tavsifi mavjudmi? 2. Xaridni moliyaviy taminlash shartlariga rioya qilinganmi? 3. Yagona yetkazib beruvchi bilan tuzilgan kontraktning boshlang'ich narxi asoslanganmi?	
	Xaridning o'z vaqtida o'tkazilishini tekshirish, tahlil qilish va baholash	1. Buyurtmachi tomonidan kontraktni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan muddatlarga rioya qilinganligi, shu jumladan kontrakt bo'yicha hisob kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilganligi. 2. Yil davomida xaridlarni rejalashtirish asoslanganmi? 3. Xarid muddatlari to'g'ri ko'rsatilganmi?	Ishlarning mavsumiyligi, ayrim turdagi tovarlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarish siklining davomiyligi, shuningdek tovarlar, ishlar va xizmatlarni qabul qilishni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchiga kamchiliklarni bartaraf yetish imkonini beradigan vaqt zaxirasining mavjudligini hisobga olish kerak.

	Xarid qilish xarajatlari samaradorligini tekshirish, tahlil qilish va baholash	1. Raqobatni cheklashga yordam beradigan omillar mavjudmi? 2. Nechta yetkazib beruvchidan xarid hajmi rejalashtirilgan? 3. Hujjatlarda xarid ishtirokchilariga nisbatan raqobatni cheklashga olib keladigan talablar mavjudmi?	Xaridning barcha bosqichlarida byudjet mablag'larini tejash mumkin bo'lgan summaga etibor qaratish lozim.
	Xarid qilish xarajatlari natijadorligini tekshirish, tahlil qilish va baholash	1. Yetkazib berilgan tovarlar, ishlar yoki xizmatlar kontraktda belgilangan talablarga javob beradimi? 2. Natijalar ekspertizasi, kontraktni bajarishning alohida bosqichi natijalari to'g'risidagi hisobot mavjudmi? 3. Kontrakt bo'yicha javobgarlik choralari va taminlash choralari qo'llanilganmi?	Byudjet mablag'laridan foydalanishning rejalashtirilgan va erishilgan natijalari taqqoslanadi.
	Xaridni amalga oshirish va xarajatlarni aniqlashning qonuniyligini tekshirish.	1. Xaridlarni amalga oshirishda imtiyozlar berish bo'yicha talablarga rioya qilinganmi? 2. Xaridlarning, shu jumladan yagona yetkazib beruvchida amalga oshiriladigan xaridlarning cheklangan hajmlari bo'yicha qonun hujjatlari talablariga rioya qilinganmi? 3. Yetkazib beruvchini aniqlashning tanlangan usuli Qonunga muvofiqmi?	Buyurtmachi, vakolatli shaxs, kontrakt xizmati, xaridlarni amalga oshirish bo'yicha komissiya va boshqalarning faoliyati baholanadi. Mamuriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lgan huquqbuzarliklar aniqlanganda, tegishli malumotlar tasir choralarini ko'rish uchun xaridlar sohasidagi nazorat organlariga yuboriladi.

		4. Kontraktning bekor qilinishi qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilganmi? 5. Kontraktda barcha majburiy shartlar mavjudmi?	
	Noqonuniy harakatlar alomatlarini aniqlash	Bu monitoringning maqsadi hisoblanmaydi, ammo qonun hujjatlari buzilishi bilan bog‘liq xavf omili hisobga olinadi, bu esa qonun hujjatlariga muvofiq javob choralarini ko‘rish zaruratini keltirib chiqarishi mumkin.	Aniqlangan holatlar yuzasidan tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish mumkin.
	Dalillarni baholash	Monitoringni amalga oshiruvchi shaxs olingan dalillarni baholaydi, ularning yetarli va lozimligini aniqlaydi. Shuningdek, qonun hujjatlari talablariga nomuvofiqlik jiddiymi? Bunda tegishli hujjatlarning ahamiyati etiborga olinadi. Raqamli ko‘rsatkichlar, holatlar, nomuvofiqlikning xususiyati va sababi, nomuvofiqlikning ehtimoliy natijalari va oqibatlari, talablarga nomuvofiqlikning ko‘lami yoki moliyaviy bahosi	Dalillarni baholash va tekshirish monitoringi natijalarini shakllantirish jarayonida ularni turli malumotlar manbalari bo‘yicha qayta tekshirish mumkin.
	Xaridlar sohasida monitoring natijalarini rasmiylashtirish	Xaridlar sohasidagi monitoring natijalari xaridlar xarajatlarining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi, o‘z vaqtida amalga oshirilishi, samaradorligi va natijadorligi to‘g‘risidagi batafsil axborotni, monitoring natijalari bo‘yicha xulosalar va takliflarni, shu jumladan ehtimoliy oqibatlarni o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir.	